

**OTA ONALAR BILAN HAMKORLIK ORQALI BOLALARNING  
MA'NAVY RIVOJLANISHINI TA'MINLASH**

**Qosimova Maftuna Abduraxmon qizi**

Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti Samarqand filiali

1 - kurs Maktabgacha ta'lim yunalishi magistri

**Annotatsiya:** ushbu maqolada ota-onalar bilan samarali hamkorlik orqali bolalarning ma'naviy rivojlanishini ta'minlashning ahamiyati va usullari tahlil qilinadi. Maqola ota-onalar pedagogika jarayoniga faol jalb qilinishi, ularning bolalar tarbiyasidagi roli, ma'naviy qadriyatlarni shakllantirishdagi o'rni va ota-ona pedagoglari bilan bog'liq samarali muloqot va doimiy hamkorlik metodlari haqida ma'lumot beradi.

**Kalit so'zlar:** ota-onalar, hamkorlik, ma'naviy rivojlanish, bola tarbiyasi, ota-ona pedagogikasi, ma'naviy qadriyatlar, bola rivoji, ta'lim, oila-kasal ta'siri, muloqot, pedagogik yondashuv, tarbiya jarayoni, ota-ona ishtiroki.

**Аннотация:** в данной статье анализируется значение и методы обеспечения нравственного развития детей через эффективное сотрудничество с родителями. Рассматривается активное вовлечение родителей в педагогический процесс, их роль в воспитании детей, формировании нравственных ценностей, а также информация о методах эффективного взаимодействия и постоянного сотрудничества с педагогами и родителями.

**Ключевые слова:** родители, сотрудничество, нравственное развитие, воспитание детей, родительская педагогика, нравственные ценности, развитие ребенка, образование, влияние семьи, общение, педагогический подход, воспитательный процесс, участие родителей.

**Annotation:** this article analyzes the importance and methods of ensuring children's moral development through effective cooperation with parents. It provides information on the active involvement of parents in the pedagogical process, their role in the upbringing of children, their place in shaping moral values, and effective communication and continuous cooperation methods related to parent educators.

**Key words:** parents, cooperation, moral development, child upbringing, parent pedagogy, moral values, child development, education, family influence, communication, pedagogical approach, upbringing process, parental involvement.

Ta'lim – tarbiya orqali shaxsda ezgu ma'naviy – axloqiy sifatlar tashkil topadi. Shu o'rinda O'zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti Islom Karimovning quyidagi fikrlarini keltirish maqsadga muvofiqdir: “Albatta, ta'lim – tarbiya ong mahsuli, lekin ayni vaqtda ong darajasi va uning rivojini belgilaydigan, ya'ni xalq

ma'naviyatini shakllantiradigan va boyitadigan muhim omildir. Binobarin, ta'lim – tarbiya tizimini va shu asosda ongni o'zgartirmasdan turib, ma'naviyatni rivojlantirib bo'lmaydi..... har qaysi ota – ona, ustoz va murabbiy har bir bola timsolida avvalo shaxsni ko'rish kerak. Ana shu oddiy talabdan kelib chiqqan holda, farzandlarimizni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan, ongli yashaydigan komil insonlar etib voyaga yetkazish ta'lim – tarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifasi bo'lishi lozim".Ma'naviyat - bu insonning axloqiy qadriyatlari, ruhiy darajasi va ichki dunyosining rivojlanishi. Bolalarda ma'naviy tarbiya ularning fazilatlarini, hurmat, halollik, adolat va mas'uliyatlik kabi sifatlarini shakllantiradi. Bola shaxsining shakllanishida butun ijtimoiy voqelik, xususan, uning o'zi tug'ilib o'sgan oila muhiti hal qiluvchi vazifani bajaradi. Oiladagi turmush madaniyati, mehnat xarakteri, ota onaning axloqiy saviyasi ijtimoiy masalaga, bolaning komil inson bo'lib yetishishiga ta'sir ko'rsatadi. Mehnat tarbiyasi hozirgi kun tarbiyasining zarur sharti, shaxsdagi professional barkamollikning asosidir. Mamlakatimizda umumdavlat ishi bo'lgan ana shu tarbiya, ya'ni o'quvchi yoshlarni ijtimoiy ishlab chiqarishning turli sohalardagi mehnat faoliyatiga tayyorlash, asosan, maktabning o'rta va yuqori sinflarida amalga oshiriladi. Lekin bu ishning muvaffaqiyatli bajarilishi boshlang'ich sinflarda va oilada turli darajada tayyorlanishga bog'liq. Bolalarga mamlakatimizda har qanday mehnat sharafli ekanini, halol mehnat qilgan kishi yuksak qadrlanishini, mehnatdan qochadigan axloqsiz odamlarni hech kim hurmat qilmasligini, boshqalar hisobiga yashash, umuman, aqlli, zukko odamga to'g'ri kelmasligini maktabdan, ota-onalarning suhbatlaridan va ularning kuzatishidan iloji boricha ertaroq bilib olishlari lozim.

Ko'pchilik bolalarni ularni shaxsiy xususiyatlari va qiziq-ishlariga mos holda faoliyatga jalb qilinadi. Ota -naning jihatlari esa; bola shaxsini hurmat qilish va unga shaxsiy xususiyatlariga muvofiq rivojlanishi uchun erkinlik berish.

Bolaning aql-zakovatli bo'lishi-ga va jismoniy hamda ma'naviy jihatdan yetuk bo'lib tarbiya-lanishiga asos yaratish. Bola rivojlanishidagi nuq-sonlarni zarur tarzda tuzatish. Bolalarning oilaviy an'analar, marosimlar, urf – odatlar va milliy bayramlarni kutib olishga tayyorlash. Bolalarni ma'naviy jihatdan tayyorlashda har xil illatlarga nafrat ruhida tayyorlash. Bolalarga kiyinish odobi va ulardagi intizomlilikni shakllantirish haqida qayg'urish. Salomlashish va ovqatlanish odoblari insoniy fazilatlar ekanligini bolalar ongiga singdirish. Bolalarda mehnatsevarlik, ezgulik, mehr-shafqat fazilat-larini, o'zidan katta yoshdagilarga hurmat bilan munosabatda bo'lish tuyg'ularini shakllantirishga harakat qilish. Odam savdosiga tushib qolgan odamlarning oilalari ham mahalla oldida uyalib, oila tanazuliga uchrashligini farzand-lar ongiga singdirish. Oilada ota-onaning bola tarbiya-sida "Ijobiy o'rnak" ko'rsatishi. Ota – onaning oilaviy sog'lom muhitni tashkil etishi uchun ibrat – namuna ko'rsatishi, oilada bola tarbiyasiga ruhiy ta'sir qiluvchi omillarni hisobga olinishi, oilada

salomatlik tamoyillariga amal qilinishi, salbiy ta'sirlarni bartaraf qilishga bo'lgan harakatlar.

Ota-onalar bilan hamkorlikning asosiy yo'nalishlari.

- Sog'lom kommunikatsiya o'rnatish: ota-onalar va pedagoglar o'rtasida muntazam va ochiq muloqot bolalarning ehtiyojlarini chuqur tushunishga yordam beradi. Bu o'zaro ishonch va qo'llab-quvvatlashni kuchaytiradi.
- Tarbiya tizimini birlashtirish: uy va maktabda bolalar uchun bir xil axloqiy tamoyillar asosida tarbiya olib borilishi ularning ma'naviy barqarorligini mustahkamlaydi.
- Ota-onalarni bilim bilan ta'minlash: ma'naviy tarbiya metodlari, bolaning psixologik xususiyatlari haqida ota-onalarga kerakli ma'lumot berish.
- Bolalar tarbiyasiga ota-onaning faol ishtiroki: turli tadbirlarda ishtirok qilish, tarbiyaviy jarayonda birgalikda ishlash maqsadga muvofiqdir.

Samarali usullar.

- Yig'ilishlar va treninglar: ota-onalar uchun maxsus ma'naviy va axloqiy tarbiya bo'yicha seminarlar tashkil etish.
- Individual maslahatlar: har bir bola va uning oilasiga xos muammolarni birgalikda ko'rib chiqish.
- Ijtimoiy loyihalar: ota-onalar va bolalar uchun birgalikda ma'naviy qadriyatlarga bag'ishlangan loyihalar, madaniy va ma'rifiy tadbirlar tashkil etish.

Bolalarga o'z tuyg'ularini ifoda etishni o'rgatish, samimiy va hurmatga asoslangan munosabatlarni shakllantirish. Ma'naviy qadriyatlarni o'z hayotida namoyon qilish uchun o'zlari namunaviy bo'lishi. Bolalarning to'g'ri qaror qabul qilishlariga yordam berish, ularni axloqiy jihatdan yetuk shaxs sifatida tarbiyalash. Ota-onalar bilan samarali va muntazam hamkorlik bolalarning ma'naviy rivojlanishida barqaror natijalarga erishishga yordam beradi. Bu nafaqat bolalarning ijodiy va ijtimoiy qobiliyatlarini oshiradi, balki ularning jamiyatda muvaffaqiyatli va mas'uliyatli fuqarolar bo'lib yetishishiga xizmat qiladi.

#### Foydalanilgan adabiyot va havolalar

1. Maktabgacha pedagogika f. r. Qodirova, Sh. Q. Toshpo'latova, N.M. Kayumova, M. N. A'zamova "Tafakkur" Nashriyoti Toshkent - 2019
2. Maktabgacha pedagogika Berdiyeva M.M.
3. Babanskiy Y. K. «Pedagogika» M. 1988 yil.
4. Munavvarov A. K. «Pedagogika» Toshkent 1996 yil.
5. Abdullayeva Sh. Umumiy pedagogika. O'quv qo'llanma. Toshkent. O'qituvchi nashriyoti. 2021 yil.